



MENING BIRINCHI
ENSIKLOPEDIYAM



DUNYO BO'YLAB SAYOHAT

• QIT'ALAR • MAMLAKATLAR •



UO‘K: 913(100)(031)
KBK 82.3(50‘)
D 88

Rassom
Baxodir ibragimov

D 88 **Dunyo bo‘ylab sayohat.** [Matn]: bolalar ensiklopediyasi. («Mening birinchi ensiklopediyam» turkumidan). – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 96 b.

ISBN 978-9943-07-675-4

Qadrli do‘stim! Voyaga yetganingiz sari olamni bilish ishtiyoqi yanada oshib boraveradi. Ana shunday paytda kitob siz uchun eng yaqin do‘st bo‘ladi.

Sizning o‘qib-o‘rganishingiz, kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishi-shingizda ushbu kitob yordamchi bo‘ladi, degan umiddamiz.

UO‘K: 913(100)(031)
KBK 82.3(50‘)

ISBN 978-9943-07-675-4

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.


MUNDARIJA

Yer tarixi.....	4
Biz yashaydigan Yer.....	6
Yevropa.....	8
Osiyo.....	38
Avstraliya va Okeaniya	66
Amerika	72
Afrika	84
Arktika va Antarktika.....	94



YER TARIXI

Hech kim Yerning qanday paydo bo'lganini aniq aytib bera olmaydi. Olimlarning fikricha, Quyosh, Oy va yulduzlar kabi Yer ham bundan 4,7 mlrd. yil avval tarqoq gaz va chang bulutlaridan paydo bo'lgan. Chang zarralari bilan gaz asta-sekin quyushlashib borgan. Moddalarning bir qatlami ikkinchisining ustiga cho'kaver-gan. Yer esa o'sib borgan. Avvaliga Yer cho'g'day qaynoq bo'lgan.




◀ 4 MILLIARD YIL MUQADDAM

Bu davrda Yerdavulqonlar otilgan, kuchli zilzilalar ro'y bergan. Faqat 500 million yildan so'ng endigina shakllangan dengizlarda ilk hayot nishonalari yuzaga kelgan.

◀ 600 MILLION YIL MUQADDAM

Yer yuzida faqat bitta cho'ldan iborat quruqlik mavjud bo'lgan. Dengizlarda meduzalar, bulutlar (*suv jonivori*), mar-jonlar, trilobit va molluskalar yashagan.

Sekin-asta uning ustki qat-lamlari sovib, qat-tiq po'st hosil bo'l-gan. Yer po'stidan quyida, qariyb 3000 km chuqurlikda mantiya, yana-da chuqurroqda, Yer markazi-ga qadar esa Yer yadrosi da-vom etadi. Yer atrofini o'rab ol-gan litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera qavatlarini Yer qobig'i yoki geografik qobiq deb ataladi. Yer po'sti sovib, tog'lar paydo bo'lgan davrda ko'p miqdorda suv bug'i ajralib chiqqan, ular bulutlarni hosil qilgan. Bulut-lardan esa yomg'ir yog'ib, millionlab yillar davomida daryo-lar, ko'llar va okeanlar paydo bo'lgan. Bora-bora bulutlar qatlami yupqalashib borgan. Yer paydo bo'lgandan beri uning qiyofasi ham, undagi o'simlik va hayvonot dunyosi ham kuchli o'zgarishlarga uchragan. Ba'zilarining tashqi ko'rinishlari o'zgargan bo'lsa, boshqalari esa umuman Yer yuzidan yo'qolib ketgan, ularning o'rnini yangi turlar egallagan.



300 MILLION YIL MUQADDAM

Ba'zi o'simlik va hayvon turlari suvda yashashni tark etib, quruqlikda hayot kechirishga moslashib bordi, dengizlarda esa yangi turdagi baliqlar paydo bo'la boshladi.

200 MILLION YIL MUQADDAM


Reptiliyalarning yashash muhiti – havo, suv va quruqlik. Bu davrda dinozavrlar dunyo xo'jayiniga aylangan. O'simlik dunyosida ignabarglilar ustuvorlik qilgan: qarag'ay, qoraqarag'ay va sekvoyya daraxtlari keng tarqalgan.

100 MILLION YIL MUQADDAM

Yer yuzida davom etgan uzoq tadrijiy rivojlanishdan so'ng qit'alar shakllana boshladi. Ularda sutemizuvchilar va qushlar paydo bo'ldi. Dastlabki gullar o'sa boshladi.

1 MILLION YIL MUQADDAM

Yer yuzining tashqi qiyofasi hozirgi ko'rinishga kelgan. Yo'qolib ketgan dinozavrlarning o'rnini sutemizuvchilar egallagan. Yaylovlar va savannalarda o'zining uzoq evolyutsion taraqqiyotini bosib o'tgan insonni uchratish mumkin bo'lgan.



BIZ YASHAYDIGAN YER

Biz yashaydigan tabiat juda xilmaxil. Bu birinchi navbatda iqlimga bog'liq: sovuq va issiq iqlimli zonalar mavjud; qayerdadir qattiq shamol essa, boshqa yerda kuchli jala yog'adi. Iqlim Quyoshdan keladigan radiatsiya, Yer yuzasining holati, atmosferadagi havo harakatlariga bog'liq. Har bir joyning iqlimi o'ziga xos xususiyatlar bilan boshqa joy iqlimidan farq qiladi. Yer yuzasida iqlim hosil qiluvchi jarayonlar, ya'ni Quyoshdan keladigan issiqlik, suv bug'larining suvga aylanishi, namlikning bir joydan boshqa joyga olib borilishi to'xtovsiz sodir bo'lib turadi. Yerning eng sovuq zonalarida muzliklar bilan qoplangan. Yomg'ir ko'p yog'adigan yerlarni nam o'rmonlar qoplagan. Yomg'ir yog'maydigan joylar esa cho'llarga aylangan. Mo'tadil iqlimli yerlarda o'rmon va dalalar yastanib yotadi.

Mo'tadil mintaqalarning **o'rmon va dashtlarida** qayin, qoraqarag'ay, qoraqayin, kashtan va boshqali o'simliklar o'sadi.

O'rta dengizbo'yi o'simliklar dunyosi zaytun daraxtlari, eman, qarag'ay va dengiz sohillaridagi, past bo'yli butalardan iborat.

Cho'llar tropiklarning dengizlardan uzoq qismlarida, yog'in kam yog'adigan hududlarda joylashgan bo'lib, bu yerlarda kunduzlari issiq, kechalari esa sovuq bo'ladi. O'simlik qoplamasi ham siyrak.



Savannalarda ko'proq past bo'yli butalar, baland o'tlar va ba'zi joylarda daraxtlarni uchratish mumkin.

Qutb tundrasining katta qismi muz bilan qoplangan. Yoz mavsumida qorlar erigandan so'ng u yerlarda moxlar, lishayniklar va past bo'lyi o'tlar o'sadi.



Tayga

Shimoliy hududlarning cheksiz kengliklarini egallab yotadi. Unda doimiy yashil daraxtlar: ignabargli qarag'ay, archa va tilog'och o'sadi.

Sovuq iqlim.

Qutbiy o'lkalarni Quyosh kam isitadi. Uzoq davom etadigan qish mavsumida termometr noldan ancha pastga tushib ketadi, yoz esa juda qisqa va salqin bo'ladi.

Mo'tadil iqlim.

Ekvator va qutblardan uzoqlashgan sari yil fasllarining o'zgarishi sezilib boradi: yoz issiq, qish sovuq, kuz va bahor salqinroq kechadi. Dengiz bo'ylariga yaqin o'lkalardagina havo haroratidagi o'zgarishlar unchalik keskin bo'lmaydi.

Issiq iqlim.

Ekvatorga yaqin joylashgan zonalarga Quyosh nuri tik tushadi va kuchli isitadi. Bu o'lkalarda doim yoz bo'ladi. Iqlim ko'proq yog'ingarchilikka bog'liq bo'ladi: ekvatorda yomg'ir juda ko'p, tropiklarda esa kamroq yog'adi.

Nam o'rmonlar iqlimi iliq va ko'p yog'inli bo'lib, u yerda 20 dan 70 m gacha balandlikdagi daraxtlar va zich butazorlar, gullar hamda ochiq ildizli o'simliklar o'sadi.

Baland **tog'larda**, asosan, ar-chagul, mox va lishayniklar o'sadi. Tropik mintaqalardagi tog'larda kaktus va qirqquloqlarni uchratish mumkin.

YEVROPA

Tabiati

Yevropa ulkan yarimorol tarzida uch tarafdin Atlantika va Shimoliy Muz okeanlari hamda ularning dengizlari bilan qurshalgan bo'lib, hududi Shimoliy qutb muzliklaridan O'rta dengizning iliq suvlarigacha davom etadi. Yevropa tabiati xilma-xil. U yerda yuksaklikka bo'y cho'zgan, cho'qqilari qor va muzliklar bilan qoplangan Alp kabi baland tog'lar ham, o'rtacha balandlikdagi, o'rmon bilan qoplangan Karpat singari tog'lar ham, keng tekisliklar ham mavjud. Qit'ada keng, sersuv tekislik daryolari (eng kattalari – Volga va Dunay), qisqa va tezoqar tog' daryolari, chuchuk va sho'r ko'llar (eng yirigi – Ladoga va Onega) ko'p. Yevropa iqlimi shimolga tomon so'vib boradi, Qutb doirasi ortida iqlim, ayniqsa, sovuq. O'rta dengiz va Qora dengiz sohillarida esa iqlim ancha issiq va yumshoq. Inson xo'jalik faoliyati natijasida Yevropaning tabiiy o'simliklar dunyosi keskin o'zgartirib yuborilgan, hayvonlarning yovvoyi turlari odamlar tomonidan qirib tashlangan. Faqat qo'riqxonalaridagina tabiiy tarzda yashovchi hayvon turlarini uchratish mumkin.



Sitruslilar (*apelsin, limon, pampelmus*) Yevropaga arablar tomonidan keltirilgan. O'rta dengiz bo'yida tarqalgan.



Tog' echkisi Pireney va Alp tog'larida yashaydi. Ularning uzun va yo'g'on shoxlari bor.





Qo'ng'ir ayiq hozirda faqat Italiya, Ispaniya va Sharqiy Yevropada saqlangan. Uning og'irligi 226 kg gacha yetadi.



Po'kakbop dub taxminan 160 yil yashaydi. Har 8–11 yilda u po'stlog'ini tashlaydi, undan esa poyabzallar uchun po'kak tayyorlashda foydalaniladi.



Garchi yovvoyi **lolalar** Osiyoda keng tarqalgan bo'lsa-da, ularning vatani Gollandiya hisoblanadi. Bu mamlakatda lolalarning juda ko'p turlari mavjud.

Bakrabaliq dengizlarda yashasa-da, daryolarda ko'payadi. Bu yerga ular urug'lanish maqsadida keladi. Qora bakrabaliq uvuldirig'i eng noyob taom hisoblanadi.

Bo'rilar kichik to'da bo'lib, asosan, Yevropaning chekka shimolida va Bolqon mamlakatlarida yashaydi.

6000 yil muqaddam misrliklar tomonidan o'stirilgan **atirgul** Yevropa bo'ylab keng tarqalgan, biroq eng ko'p Bolgariyada o'sadi.

Qalqonbaliq tumshug'ining shakliga qarab shunday nomlangan bo'lib, uzunligi 3,5 m ga yetadi. O'z urug'ini davom ettirish maqsadida u Shimoliy dengizdan O'rta dengizgacha bo'lgan uzoq masofani bosib o'tadi.

Burgut bugungi kunda juda kamayib ketgan. U o'zining ulkan, diametri 2 m gacha bo'lgan uyasini inson oyog'i yetishi qiyin bo'lgan joylarga quradi.

O'rta dengiz bo'ylarida **uzumning** 5000 dan ziyod turi o'sadi. Eng uzun tok novdasi (43 m) 1786-yilda ekilgan edi, bugungi kunda undan 2500 bosh uzum terib olinadi.




Latcha uzunligi 26 sm bo'lib, asosan, o'rmonlarda yashaydi. U o'zidan katta hayvonlar, masalan, quyonlarni ham ovlaydi. Qishda u o'zining jigarrang po'stagini oqqa almashtiradi.



Mamlakatlari

Yevropada mamlakatlar juda ko'p: dunyoda eng kichik hisoblanmish shahar-davlat Vatikandan boshlab, eng katta davlat – Rossiya ham shu qit'ada joylashgan (mamlakatning bir qismi Osiyoda). Yevropaning atrofidagi orollarda ham alohida davlatlar mavjud. Hozirda Yevropada 40 dan ziyod mamlakat bor. Jami aholisi 742 mln.dan ziyod. Yevropa shartli ravishda ikkiga: Sharqiy Yevropa va G'arbiy Yevropaga bo'linadi. Yevropada jahonning ko'plab mamlakatlari birlashtirgan bir qancha nufuzli harbiy, iqtisodiy, moliyaviy, insonparvarlik, sport va boshqa tashkilotlar, shuningdek, banklar joylashgan.



ISLANDIYA



Monako





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3660> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3660> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3660>